

GLOBALASHUV VA O'ZBEK TILI

Barchinoy Isroilova

Andijon davlat universiteti

tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur tezisda o'zbek tili va uning jamiyatdagi o'rni haqida qisqacha so'z boradi.*

Tayanch so'zlar: *globallashuv, o'zbek tili, davlat tili, jamiyat, farmon, qaror.*

Tillarning ijtimoiy vazifasiga qarab tabaqlanishida bugun dunyo miqyosida ro'y berayotgan globallashuv jarayonlari muhim o'rinn tutmoqda. Globallashuv, ya'ni butun jahon fan-texnika va texnologiyasining uzluksiz muvaffaqiyatlari natijasida bir butun kurreyi zaminga aylanishi, bozor munosabatlarining tobora kengroq joriy etilayotgani natijasida mamlakatlar va mintaqalar o'rtasida iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy aloqalar misli ko'rilmagan darajada jadallahib, o'sib bormoqda. Bu jarayonlarning tabiiy xosilasi sifatida davlatlar orasidagi aloqalar yagona umumtilga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirdi.

XX asrning o'rtalariga kelib AQSH va boshqa inglizzabon mamlakatlarning jahon iqtisodi, siyosati, madaniyatida ta'siri kuchayishi tabiiy ravishda ingliz tilining nufuzi va obro'-e'tiborining ortishiga sabab bo'ldi. Albatta, bu ingliz tili va ingliz tilida so'zlashuvchi xalqlarning hukmronligi degani emas. Negaki til undan foydalanuvchilar uchun befarq. Til- inson ixtiyoridagi aloqa vositasi, xolos. Kimki undan samarali foydalana olsa, marra-shuniki. Shu sababli hozirgi zamon fan va texnologiyalari cho'qqilariga intilayotgan davlatlar ingliz tilini egallashga, undan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga harakat qilmoqda.

Bugungi kunda monoetnik mamlakatlar yo'q. Ko'pmillatlilik va milliy munosabatlarni, madaniyatlarning o'zaro aloqalarini rivojlantirish kabi sabablar davlat tili tajribasi va amaliyoti bilan muammolarni vujudga keltirdi. YUNESKO hujjatlarida milliy tillarni rivojlantirish va ko'ptillilikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan me'yorlar belgilangan. Ammo ular mustaqil davlatlarda davlat tilini tatbiq etish bo'yicha turli xil yondashuvlar, konsepsiylar va ular bilan bog'liq ziddiyatli tendensiyalar yuzaga kelmoqda. Shu munosabat bilan davlat tilini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy, konseptual asoslarini bugungi kun nuqtayi nazaridan tadqiq etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.¹ Shu bois mustaqil davlatlarda uyg'un til siyosati yuritish, davlat tilining keng miqyosda qo'llanilishini ta'minlash, uning milliy identlikni saqlab qolishdagi va millatlararo barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatini tadqiq etish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Mamlakatimizda 1989-yilda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Bu esa O'zbekistonning suveren davlat sifatidagi mustaqil taraqqiyot yo'lini boshlaganligini anglatadi. Tilimizga davlat tili maqomi berilishi ijtioiy-tarixiy voqelikdir. "Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni, ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz

¹ Н.Азизова Давлат тили макоми узбек тили функционал ривожланишининг омили сифатида(ижтимоий-фалсафий жихатлари).Фал.фан.ном.илмий даражга олиш учун дис.автореф. Самарканд 2020.-Б 5.

qoidasiga aylantirishimiz kerak"² . Shu nuqtayi nazardan mamlakatda yashayotgan boshqa millatlarning tili va milliy madaniyati rivojiga salbiy ta'sir qilmagan holda, o'zbek tilining fuksional rivojlanishini hamda kengaytirishning samarali yo'llarini izlab topishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son, 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son farmonlari va 2019-yil 4-oktabrdagi "Davlat tili haqida" gi Qonuni qabul qilinganini o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi PQ-4479-son qarori hamda davlat tiliga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'zbek tilining rivojiga, uning jamiyatdagi o'rni yuksalishiga xizmat qilmoqda.

Foydalanimagan adabiyotlar

1. Н.Азизова Давлат тили макоми узбек тили функционал ривожланишининг омили сифатида(ижтимоий-фалсафий жихатлари).Фал.фан.ном.илмий даража олиш учун дис.автореф. Самарканд 2020.-Б 5.
2. Мирзиёев Ш.М. Узбек тили халкимиз учун миллий узлигимиз ва мустакил давлатчилик тимсоли, бебаҳо маънавий бойлиқ, буюқ кадриятдир.// Халқ сузи газетаси. - 2019 йил 22 октябр.

² Мирзиёев Ш.М. Узбек тили халкимиз учун миллий узлигимиз ва мустакил давлатчилик тимсоли, бебаҳо маънавий бойлиқ, буюқ кадриятдир.// Халқ сузи газетаси. - 2019 йил 22 октябр

ь , 218-сон.